

TOSHLOQ TUMANI AHOLISI JOYLANISHINING AYRIM MASALALARI

Abduvaliyev Xayitboy Abdug'aniyevich

Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

h.a.abduvaliyev@gmail.com;

Solijonova Xurshidabonu Umidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti geografiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada asosan, Toshloq tumani aholisining joylanishining ayrim jihatlari tahlili ochib berilgan. Mavjud shaharchalarning 2020-2021-yillardagi demografik ko'rsatkichlar taxlilida ayrim e'tiborli masalalarga to'xtalغان.*

Kalit so'zlar: *aholi soni, aholi zichligi, migratsiya, infratuzilma, tabiiy-geografik sharoit.*

KIRISH: Aholi deganda barchamizning ko'z oldimizda ma'lum bir hududda yashovchi insonlar gavdalanadi. Mazkur insonlar zaminida jamiyat shakllanadi. Yer yuzida insoniyat paydo bo'lgandan buyon bir qancha yillar o'tdi. Ana shu yillar davomida inson, jamiyatda o'z mavjudligini saqlash va yashash muhitini optimallashtirish harakat qilib keladi. Ushbu jarayonlar davomida inson tabiiy resurslardan foydalanib, moddiy ehtiyoji uchun zarur vositalarni yaratmoqda. Xususan, mazkur jarayonlarda O'zbekiston Respublikasining aholi soni jihatidan yuqori o'rinni band etib kelayotgan Farg'ona viloyatidagi demografik vaziyatni o'rganish va taxlil etish muhim amaliy geografik tadqiqot talab etadi. Viloyatda 15 ta ma'muriy tuman bo'lib, ularning ichida demografik salohiyati jihatidan Quva tumani yetakchi o'rinni egallasada, ammo aholi zichligi bo'yicha ko'rsatkichlar uning Toshloq tumanida eng yuqori nuqtada ekanligini ko'rsatmoqda.

Muhokama va natijalar. Toshloq tumanining chegarasi g'arbdan Marg'ilon shahri, sharqda Quva tumani, shimoli-g'arbda esa Qo'shtepa, Yozyovon tumanlari, janubi-sharqda Quvasoy shahri, shimoli-sharqda esa Andijon viloyatining Bo'z tumanlari bilan chegaralanadi. Maydoni 0,24 ming km². Aholisi 201 040 kishi (01.01.2021). Tumanda 10 ta shaharcha mavjud. Ular Toshloq, Arabmazor, Axshak, Varzak, Zarkent, Qumariq, Quyi Nayman, Sadda, Turvat, Yakkatut shaharchalaridir. 51 ta mahalla fuqarolar yeg'ini mavjud (1-jadval).

1-jadval

Toshloq tumani shaharchalari haqida ma'lumot

№	Shaharchalar	Aholi soni	
		01.01.2020	01.01.2021
1.	Toshloq	19848	20189
2.	Arabmazor	4315	4418
3.	Yakkatut	4085	4178
4.	Turvat	3060	3139
5.	Quyi Nayman	3042	3137

6.	Varzak	2690	2678
7.	Zarkent	2615	2688
8.	Qumariq	2481	2486
9.	Axshak	2399	2425
10.	Sadda	2241	2253
Jami:		46776	47591

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2020 yilga nisbatan 2021 yilda tuman shaharchalari umumiy aholisi soni 46776 kishidan 47691 kishiga ortgan. Mazkur bir yilda shaharchalar umumiy aholisi soni 815 kishiga ortganini ko'rsatadi. Biroq, jadvaldan ko'rinib turibdiki, mazkur aholi soni ortishida Varzak shaharchasining xissasi mavjud emas. Shaharchada aholi soni 1 yilda 12 kishiga qisqargani ko'rinadi. Bu holat shaharchada tug'ilishning past bo'lganligidan emas, balki mazkur yilda migratsiyaning salbiy saldosi tufayli yuzaga kelgan.

Mazkur ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, 2020-2021-yillar oralig'ida shaharchalarning aholi soni o'sib bormoqda. Ayniqsa, aholi o'sishi Toshloq shaharchasida jiddiy tus olmoqda. Buning asosiy sababi, shaharcha zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlayotgani hamda uning katta demografik yadro hisoblangan Marg'ilon va Farg'ona shaharlariga tutash ekanligidir. Shaharchaning bunday o'ziga xos xususiyati uning aholi soni jihatdan ortishiga hamda boshqa shaharchalarga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib kelmoqda.

Axshak shaharchasida aholi sonining past ko'rsatkichda bo'lishini mutaxassislar, yashash sharoitining past ekanligi, aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi sohasida bandligi hamda aholining ma'lumotlik darajasi pastligi bilan izohlashmoqda. Bundan tashqari shaharcha toza ichimlik suvi bilan yaxshi ta'minlanmagan.

Yurtimizda keyingi yillar mobaynida aholining hayotiy muammolarini o'z fursatida hal etish va munosib turmush sharoitlarini yaratish, insonlarning farovon hayoti va daromadini oshirib borish, bir so'z bilan qisqa qilib aytganda, xalqimizni hayotdan rozi bo'lib yashashiga e'tibor qaratilmoqda va hukumatimiz tomonidan juda ko'p aholini osoyishtalik haqida izlanishlar olib borilmoqda.

Shu o'rinda, inson qachon hayotdan mamnun bo'lib yashaydi? Qachonki, o'zi xohlaganidek to'la to'kis va farovon hayotni orzusida emas, balki kundalik hayotida emas, aynan bugun his etsa, o'z hayotidan ko'ngli to'lsa, oilasi tinch va farovon bo'lsa avvalo, dunyoqarashi o'zgaradi, hukumatimiz tomonidan taqdim etilayotgan islohotlarga daxldorlik hissi kuchayadi, yangilik yaratish fikrli bo'ladi, aynan fuqaroligini his qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuotda e'lon qilingan "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilingach, viloyatning ko'plab aholi punktlari qatori Toshloq tumanining ma'muriy hududlarida ham aholini ko'p qavatli uylar bilan ta'minlash yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek,

tuman viloyatda aholi zichligi bo'yicha eng yuqori o'rinni band etadi va bu holat aholi punktlarining bo'ylama o'stirishni talab etadi.

Xulosa. Har bir hududning zamonaviy qiyofasini hosil qilishda ushbu hududning aholisi soni va zichligini inobatga olish lozim. Chunki iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ko'zda tutganda ko'p yillik maqsadlar hisobga olinadi hamda ushbu hududlarning klajakdagi aholililik ko'rsatkichlari muhim rol o'ynaydi. Aholi zichligi toboro ortib borayotgan Toshloq tumani kabi tumanlarda aholini joylanishidagi nozik jihatlarni hisobga olib borish mazkur tumanlarning kelajak qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdug'aniyevich, A. H., & Abdumalik o'g'li, A. A. (2022). HUDUDNING TABIIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI AHOLI JOYLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 576-581.

2. Abduvaliyev, H. A. A., Hamdamova, F. A. Q., & Eraliyev, Z. Z. Q. (2021). LANDSHAFT OMILI ASOSIDA AHOLI HUDUDIY TAKRIBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1219-1223.

3. Абдувалиев, А. Х., & Абдулхамидов, А. А. Ў. (2021). ФАРФОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИ ЖОЙЛАШУВИНИНГ ИЖТИМОЙИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1127-1136.

4. Абдувалиев, А. Х., & Абдулхамидов, А. А. Ў. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁ АҲОЛИСИНИНГ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТИГА ТАБИИЙ-ГЕОГРАФИК ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 435-440.

5. Abduganievich, A. H. (2020). Application Of The Landscape Approach To The Study Of The Population Distribution Of The Fergana Valley. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(07), 291-297.

6. Abduvaliyev, H., & Eraliyeva, Z. (2022). THE NEED FOR CALCULATING POPULATION DENSITY BASED ON A NEW METHODOLOGICAL APPROACH. *Science and Innovation*, 1(8), 118-123.

7. Abduvaliev, H. A. (2020). Some issues of population dynamics in the Fergana Valley. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(9), 135-140.

8. <https://farstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2.html>

Abdug'aniyevich, A. X. (2023). FARG 'ONA VILOYATI NORASMIY MEHNAT BOZORLARI SHAKLLANISHINING GEOGRAFIK OMILLARI. *World of Science*, 6(4), 574-580.

9. Abdug'aniyevich, A. X. (2023). FARG 'ONA VILOYATIDA NORASMIY MEHNAT BOZORLARI SHAKLLANISHINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *World of Science*, 6(4), 581-587.

10. Ахмадалиев, Ю. И., Абдувалиев, Х. А., & Алимджанов, Н. Н. (2019). ABOUT THE ETHO GEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE. In *Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции* (pp. 107-111).